

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

TOSHKENT VILOYAT DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

PSIXOLOGIYA FANIDAN SEMINAR
MASHG'ULOTI ISHLANMALARI

UMUMIY PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA KAFEDRASI

Tuzuvchilar:

N.T.Xojimatova, E.SH.Hasanov

Taqrizchilar:

Ped.fan.nomzodi B.E.Qayumov,
Psixologiya fan.nom. E.Sh.Usmonov

ANGREN – 2005

Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha uslubiy tavsiyalar:

Seminar mashg'ulotlari asosan quyidagi vazifalarni amalga oshirishni ko'zda tutadi:

1. Talabalarlarning leksiyalarda egallay olgan psixologik bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish va kengaytirish.
2. Talabalarda psixologiyaga doir adabiyotlar mustaqil ishlay olish malakalarini shakillantirish.
3. Talabalarni psixologiyaga doir amaliy tadqiqotchilik malakalari bilan qurollantirish.
4. Talabalarni psixologiyadan egallagan nazariy va amaliy malakalarini pedagogik jarayonga tadbiq qila olishga o'rgatish.
5. Psixologik tadqiqot natijalariga tayangan holda, bo'lg'usi pedagoglarda tarbiyalanuvchilarga nisbatan ongli va to'g'ri munosabatda bo'lish malakalarini shakillantirish.
6. Talabalarlarning psixologiya fani va pedagoglik mutaxassisligiga qiziqtirish.
7. Talabalarga psixologiyadan egallagan bilimlarini asosli, ishonchli va erkin bayon qilib bera olish malakasini tarbiyalash.

Har bir seminar mashg'ulotlarining rejasini tuzishda talabalarga ma'ruzaning metodologik va nazariya tomonlarini mumkin qadar to'laroq ochish, ilmiy adabiyot bilan mustaqil ishlay olishga o'rganish, psixologik eksperiment metodikasi bilan tanishish, maktab o'quvchilari shaxsining tarkib topishi va rivojlanishini kuzata bilish psixologik bilimlarni sintez va analiz qilish hamda to'g'ri pedagogik hulosalar chiqara bilishning o'rganish imkoni yaratilda.

Seminar va amaliy mashg'ulotlar mazmuniga bevosita bojliq bo'gan adabiyotlar kjo'rsatiladi. Seminar mashg'ulotlarini rejasini va adabiyotlarini oldindan tavsiya etiladi. Chunki talabalar adabiyotlarni to'la o'rganib, seminarda so'zga chiqish uchun tayyorgarlik ko'rishlari lozim.

Pedagogika oliygoiida talabalar psixologik fikr yuritishga, yangi faqat psixik faoliyat qonunlarinigina emas, balki bu qonunlarni bilishga asoslangan iolda maktab o'quvchisi shaxsining u yoki bu tarzda namoyon bo'lishini to'g'ri tushuntirib berishni bilishi kerak. Iar bir mavzu bo'yicha psixologik masalalar tanlangan, o'rganilgan adabiyotlar bo'yicha referat mavzulari iam tavsiya etiladi. Talabalar referat yoki dokladlar ustida ishlar ekanlar tavsiya etilgan adabiyotlardan tashqari psixologiya fanining ayrim muammolarini yoritib beruvchi qo'shimcha manbaalardan iam foydalanishlari mumkin. Talabalar referat yoki doklad yozishga kirishdan oldin quyidagi ishlarni amalga oshirishlari lozim:

- mavzu yuzasidan zaruriy adabiyotlarni to'plash va ularni chuqur o'rganish;
- yaxshilab O'ylash va ishning mufassal rejasini tuzish;
- avtorlar tomonidan ilgari surilgan u yoki bu qoidalar manbalarining to'g'riligini va ishonchliligini o'ylab ko'rish;
- adabiyotda ko'rib chiqilgan asoslarni taqqoslab ulardan umumiy va xususiylarini ajratish, o'rganilgan materialni referat yoki dokladning belgilangan rejasiga mos ravishda umulashtirish;

- ishga tegishli ko'rsatmali qurolni tayyorlash, shaxsiy kuzatish, tajriba eksperimentlardan foydalanish;
- referat yoki doklad tuzish talablariga muvofiq ishining muhim shaklidir. Bu ish ijodiy tafakkur taraqqiyotiga yordam beradi, o'quvchining ijtimoiy xatti-harakatlari va xulq-atvoriga baho berishda to'g'ri yondashishga yordam beradi.

PSIXOLOGIYA (SEMINAR) 20 SOAT

1 mashg'ulot. Hozirgi zamon psixologiyasi fanining predmeti, tuzilishi, holati, metod va prinsplari. 2-s

Reja:

1. Psixologiyaning predmeti va tarkib topish bosqichlari.
2. Psixologik konuniyatlarning asosiy ob'ektiv xarakteri.
3. Psixologiya fanining sohalari va fanlar tizimidagi o'rni.
4. Hozirgi zamon psixologiya fanining metodlari va prinsiplari.

2. Psixika va ongning taraqqiyoti. 2-s

Reja:

1. Psixikaning materiya evolyutsiya natijasi ekanligi.
2. Psixika taraqqiyot bosqichlari.
3. Inson psixikasining paydo bo'lishi va taraqqiyoti.

3. Shaxs faoliyatining psixologik xarakteristikasi. 2-s

Reja:

1. Faoliyat haqida umumiy tushuncha.
2. Faoliyat strukturasi, inson psixik taraqqiyotiga ta'siri.
3. Faoliyat turlari, etakchi faoliyat.
4. Pedagogik faoliyat, malakalarning psixologik tavsifi.

4. Psixologiyada shaxs tushunchasi. 4-s

Reja:

1. Psixologiyada shaxs tushunchasi.
2. Shaxsning tuzilishi.
3. Shaxsning rivojlantiruvchi, xarakatlantiruvchi kuchlar.
4. Komil inson tushunchasi.
5. O'quvchi shaxsini o'rganish metodlari.

5. Diqqat va xotira. 2-s

Reja:

1. Diqqat va uning turlari.
2. Diqqatning fiziologik mexanizmlari va o'ziga xos xususiyatlari.
3. Xotira va uning jarayonlari hamda turlari.
4. Xotiraning fiziologik mexanizmlari va nazariyalari.
5. O'quvchilar diqqatini va xotirasini o'rganish metodlari.

7. Tafakkur. 2-s

Reja:

1. Tafakkur bilishning yukori formasi sifatida.
2. Tafakkur turlari va jarayonlari.
3. Tafakkur va nutq. Nutqning fiziologik mexanizmlari.
4. Fikr yuritish faoliyatining motivlari.
5. Yosh bolalarning tafakkurining rivojlanishi.

7. Yosh davrlar psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanining predmeti va metodlari. 2-s

Reja:

1. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya fanining predmeti, vazifasi va metodlari.
2. Yosh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanining asosiy bulimlari.
3. Kichik maktab yosh davrlarining psixologik xususiyatlari.

8. O`smirlik davri shaxsning rivojlanishining psixologik xususiyatlari. 2-s

Reja:

1. O`smirlik davri rivojlanishning etakchi omillari.
2. Psixik rivojlanishdagi biologik va ijtimoiy omillar ustidagi o`zaro munosabatlar dinamikasi.
3. O`smirlar bilish jarayonidagi sifatiy o`zgarishlar o`smirlar xulqiy chetlanishidagi mexanizmlari.

9. O`qituvchi psixologiyasi.

Reja:

1. Jamiyatda o`qituvchining o`rni va vazifalari. O`qituvchiga qo`yiladigan talablar.
2. O`qituvchining kasbiga xos xislatlar.
3. Pedagogik qobiliyatlar.
4. O`qituvchining o`z malakasini oshirib borishining muammolari.

1 mashg`ulot. Hozirgi zamon psixologiyasi fanning predmeti, tuzilishi, holati, metod va prinsplari. 2-s


Reja:

5. Psixologiyaning predmeti va tarkib topish bosqichlari.
6. Psixologik konuniyatlarning asosiy ob`ektiv xarakteri.
7. Psixologiya fanining sohalari va fanlar tizimidagi o`rni.
8. Hozirgi zamon psixologiya fanining metodlari va prinsiplari.

1-Mashg'ulot savollariga javob berish dasturi.

Birinchi savol: «Psixologiya» termining lug'aviy ma'nosini ochib berish, psixologiya asos solinishi va uning fan sifatida maydonga kelishi haqida ma'lumot berish, psixik jarayonlar, psixik holatlar, psixik xususiyatlar haqida tushuncha berish, psixologiya faniga ta'rif berish, psixologiya faning vazifasi haqida tushuncha berish.

Ushbu sxemani tushuntiring.



Nazorat savollari:

1. Psixologiya qanday fan? U nimani o'rgatadi?
2. Psixologiya fanining vazifasi nimalardan iborat?
3. Psixologiya qadimgi navqiron fan ekanligi haqida ma'lumot bering.
4. Yuqorida keltirilgan sxemani izohlab bering.

Ikkinchi savol: Psixologiya fanining tarixi, psixologiya haqida turli yo'nalishdagi nazariyalar haqida ma'lumot berish, sharq mutafakkirlarining psixologik qarashlari, psixologiyaning tabiiy, ilmiy va ijtimoiy fan sifatida ekanligi, psixologiyaning fan sifatida yuzaga kelishi bosqichlarini jadval orqali tushuntirib berish:

Rasm-№1.

IV bosqich	Psixologiya - psixikaning mexanizmlari, faktlari va qonuniyatlari haqidagi fan sifatida	Ilmiy psixologiyaning zamonaviy bosqichi
III bosqich	Psixologiya - inson xulq - atvorini	XX asrda paydo bo'lgan. Psixologiyaning maqsadi- insonning konkret xulq - atvorini, inson munosabatlari va reaksiyalarini


	o`rganuvchi fan sifatida	o`rganish borasida kuzatishlar olib borildi. Xulq - atvorga sabab bo`luvchi motivlar hisobga olinmadi.
II- bosqich	Psixologiya - ong haqidagi fan sifatida	XVII asrda tabiiy fanlar paydo bo`lishi bilan yuzaga keldi. Fikrlash, istash - ong deb olindi. Asosiy metod sifatida insonni o`zini - o`zi kuzatishi olindi.
I- bosqich	Psixologiya ruh haqidagi fan sifatida	Psixologiyaga bunday ta`rif 2300 yil ilgari berilgan ruh deb inson hayotidagi barcha tushunib bo`lmaydigan narsalar qabul qilingan

Nazorat savollari:

1. Psixologiya fanining tarixi haqida tushunch bering.
2. Psixologiya fani ha`ida qanday nazariyalarni bilasiz?
3. Sharq mutafakkirlarining inson psixikasi iaqidagi qarashlari.
4. Yuqoridagi jadvalga izoh bering.

Uchinchi savol: psixologiyaning nazariy va amaliy vazifalari, psixologiyaning asosiy sohalari, har turli faoliyat sohalaridagi kishilar psixikasining o`rganuvchi tarmoqlari haqida tushuncha beriladi. Psixologiyaning falsafa, tabiatshunoslik, pedagogika, kbnetika va boshqa fanlar bilan aloqasini tushuntirish, psixologiyaning fanlar sistemasida tutgan o`rnini izoilash.

B.M.Kedrov sxemasi.




Nazorat savollari:


1. Psixologiya fanining fanlar tizimida tutgan o`rnini aniqlang va tushuntiring.
2. Iozirgi zamon psixologiyasining holatini aytib bering.
3. Psixologiyaning asosiy yo`nalishlari nimadan iborat?
4. Psixologiya tarmoqlarini tushuntiring.
5. Psixologiya fannini fanlar tizimida tutgan o`rnini Kedrov B.M. sxemasi bo`yicha izoilab bering.

**To`rtinchi savol:** Psixologiyaning metodlari haqida tushuncha berish, psixologik tadqiqotlar bosqichlari haqida ma`lumot berish, metod, metodologiya, metodika tushunchalarini izoilash, psixologik tadqiqotlarining asosiy bosqichlarini sxema orqali tushuntirish, kuzatish, eksperemnt, test, anketa, so`roq, interv`yu, sotsiometriya,

metodlari haqida ma'lumot berish. Psixologiya fanining prinsplari iaqida tushuncha berish (determinizm, ong va faoliyat birligi, psixikaning faoliyatda rivojlanishi)



Psixologik tadqiqotlar metodologiyasi, metodlari va metodikalari sxemasini izoilang.



Psixologik tadqiqot bosqichlari sxemasi.

Nazorat savollari:

1. Psixologiyaning asosiy metodlarini ayting.
2. Psixologik tadqiqotlarning asosiy bosqichlari qanday?
3. Qaysi psixologik metodlar pedagogik faoliyatda keng qo'llanilishi mumkin?
4. Psixologik testlarning mohiyati va imkoniyatlarini tushuntiring.
5. Psikani o'rganishda modellashtirishning imkoniyati va vazifalarini aniqlang.
6. Zamonaviy psixologiya metodlarining klassifikatsiyasi qanday guruilarga ajratiladi. (B.G.Anan'ev.)
7. Psixologiya fanining printsplari iaqida ma'lumot bering.

Qo'shimcha topshiriq:

Birinchi mavzu yuzasidan test va krossvord tuzishga harakat qiling.

Adabiyotlar:

1. A.V.Petrovskiy. "Umumiy psixologiya", 1992 yil.
2. P.V.Ivanov . "Umumiy psixologiya", 1972 yil.
3. A.N.Leont'ev. "Problem' razvitiya psixika" , MDU, nash. 1972.
4. M.Voxidov. Psixologiya. 1982 yil
5. Turgunov. Psixologiya termenlarining ruscha - o'zbekcha izohli lug'ati. 1975 y.
6. Psixologiya atlas. M.Gomezoz tahririda. 1986 yil.
8. Psixologiya izohli lug'ati. 1997 yil
9. Umumiy psixologiya, yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya. M.Gomezoz tahririda 1982 yil.
10. V. Karimova. Psixologiya 2000 y.
- 11.Foziev E. "Umumiy psixologiya " 1-kitob, Toshkent, 2002
- 12.M.G.Davletshin. "Psixologiya", Izohli lugati, Toshkent 1998
- 13.M.G.Davletshin. «Umumiy psixologiya», Toshkent, 2002.
- 14.Foziev E. «Umumiy psixologiya», 2 –kitob, Toshkent, 2002.

2- mashg'ulot. Psixika va ongning taraqqiyoti. 2-s

Reja:

1. Psixikaning materiya evolyutsiya natijasi ekanligi.
2. Psixika taraqqiyot bosqichlari.
3. Inson psixikasining paydo bulishi va taraqqiyoti.

2-mashg'ulot savollariga javob berish dasturi

Birinchi savol: Taraqqiyotni dialektik materialistik tarzda tushunish, nerv sistemasi va aks ettirish faoliyatning rivojlanishi, jonli va jonsiz tabiatda aks ettirish, ta'sirlanuvchanlik haqidagi tushuncha tirik materiyaning xususiyati ekanligi, psixik aks ettirish formasining paydo bo'lishi, psixik taraqqiyotda sensor va pertseptiv bosqichlar haqida tushuncha beriladi.

Nazorat savollari:

1. Psixika haqida tushuncha bering.
2. Nerv sistemasi va aks ettirish faoliyatining taraqqiyoti:
A) Tirik va o`lik tabiatda aks ettirish;
V) Ta`sirlanuvchanlik haqidagi tushuncha tirik materiyaning xususiyati haqidagi tushuncha;
3. Psixik aks ettirish formasining paydo bo`lishi haqida ma'lumot bering.
4. Psixika taraqqiyotga pertseptiv va sensor bosqichlari haqida tushuncha bering.

Ikkinchi savol: Psixikaning taraqqiyot bosqichlari haqida tushuncha berish, filogenez va ontogenez haqida ma'lumot berish. Hayvonlar harakatlarining asosiy formalari, xatti-harakat formalarining taraqqiyoti, hayvonlarning intellektual harakatlari, instinktlari, ko`nikmalari haqida tushuncha beriladi.

Nazorat savollari:

1. Psixikaning taraqqiyot bosqichlarini tushuntiring.
2. Hayvonlar harakatining asosiy formalari nimalardan iborat.
3. Intellektual xatti-harakatlar haqida tushuncha bering.
4. Hayvonlardagi instinktlar, qunikmalar nimalardan iborat?

Uchinchi savol: Inson ongining paydo bo`lish shart sharoitlari, sabablari, inson ongining hayvon psixikasidan farqi, kishilarning mehnat faoliyati va uning inson ongi taraqqiyotidagi roli, ong va til orasidagi bog`lanishlar, ong va o`z-o`zining anglashning ijtimoiy tarixiy tabiati tushuntiriladi.

Ushbu jadval aks etgan muhim xususiyatlarni izohlang.

Muhim xususiyatlar	
Hayvonlar faoliyati	Inson faoliyati
1. Instinktiv biologik hayot faoliyati.	1. <i>Faoliyat bilish va muloqot ehtiyoji orqali yo`naltiriladi.</i>
2. Hamkorlikda faoliyat mavjud emas.	2. Har qanday harakat insonlar uchun hamkorlik faoliyatida ma'lum darajada mazmun kashf etadi.
3. Konkret vaziyatdan ko`rsatmali tasavurga asoslanadi.	3. Mavhum fikr yuritadi, narsa va hodisalar orasidan bog`liqlikni aniqlashga harakat qiladi.
4. Avloddan o`tadigan harakatlar dasturi.	4. Muloqotning ijtimoiy vositalari orqali tajribani uzatish va mustahkamlash.
5. Yordamchi vositalardan foydalanish mumkin lekin ularni saqlamaydi doimo ulardan foydalanmaydi.	5. Mehnat qurollarini yasash, ularni saqlash va keyingi avlodga qoldirish.
6. Atrof muhitda moslashadilar.	6. O`z ehtiyojlaridan kelib chiqib, tashqi olamga ta`sir etadi, uni o`zgartiradi.

Nazorat savollari:

1. Inson ongi paydo bo`lishining sabablari nimalardan iborat?

2. Ong va ongsizlik deganda nimani tushunasiz?
3. Yuqorida ko`rsatilgan jadvalga izoh bering?
4. Yuksak psixik funktsiyalarning tarkib topishi haqida ma'lumot bering.

Adabiyotlar:

1. A.V.Petrovskiy. "Umumiy psixologiya", 1992 yil.
2. P.V.Ivanov. "Umumiy psixologiya", 1972 yil.
3. A.N.Leont'ev. "Problem' razvitiya psixika", MDU, nash. 1972
4. M.Voxidov. Psixologiya. 1982 yil
5. E.Goziev. Psixologiya. 1994 yil
6. Turgunov. Psixologiya termenlarining ruscha - o'zbekcha izohli lug'ati. 1975 y.
7. Psixologiya atlas. M.Gomezoz tahririda. 1986 yil.
8. Psixologiya izohli lug'ati. 1997 yil
9. Umumiy psixologiya, yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya. M.Gomezoz tahririda 1982 yil.
10. A.A.Leont'ev. Obshaya xarakteristika psixika jivotn'x.
11. E.Goziev. "Intellekt psixologiyasi". 1996 yil.
12. E.Goziev. Inson psixikasining rivojlanishi. 1996 yil.
13. Foziev E. "Umumiy psixologiya " 1-kitob, Toshkent, 2002
14. M.G.Davletshin. "Psixologiya", Izohli lugati, Toshkent 1998
15. M.G.Davletshin. «Umumiy psixologiya», Toshkent, 2002.

Qo`shimcha topshiriqlar:

Quyidagi mavzularda referat yoki doklad yozishga harakat qiling.

1. Hayvonlarda aql bormi?
2. Hayvonat olamida psixik aks ettirish formalarining taraqqiyoti.
3. Hayvonlar instintlari.
4. Inson ongi va o'z-o'zining anglash.

Adabiyotlar:

1. K.K.Plotonov. Qiziqarli psixologiya. O`qituvchi, 197-bet.
2. E.V.Shoroxova. Problema soznaniya v filosofii i estestvoznani. M., Sotsekgiz, 1961, 87-91-betlar.
3. A.N.Leont'ev. Problemi razvitiya psixiki. 3-nashri, MDU nashriyoti, 1972.
4. D.Xaynd. Povedenie jivotnix. M., «Mir», 1975.
5. S.L.Rubinshteyn. Problemi obshey psixologii. M., «Pedagogika», 1973.

3- mashg`ulot. Shaxs faoliyatining psixologik xarakteristikasi. 2-s

Reja:

1. Faoliyat haqida umumiy tushuncha.
2. Faoliyat strukturasi, inson psixik taraqqiyotiga ta'siri.

3. Faoliyat turlari, etakchi faoliyat.
4. Pedagogik faoliyat, malakalarning psixologik tavsifi.

3-mashg`ulot savollariga javob berish dasturi

Birinchi savol: Odamning xatti-harakati va uning ehtiyojlarini qondirish usullari, ehtiyojlarning kelib chiqishi hamda predmetiga ko`ra turlari haqida ma'lumot berish, faoliyatining ta'rifi, maqsadi va motivi haqida tushuncha berish.

Nazorat savollari:

1. Faoliyat deganda nimani tushunasiz?
2. Ehtiyoj va uning turlari haqida tushuncha bering.
3. Faoliyat maqsadi nima?
4. Motiv tushunchasini izohlang.

Ikkinchi savol: Faoliyat strukturasi, ish va harakatlar, harakatlarni boshqarish va uni nazorat qilish, faoliyatning interiorizatsiyasi va eksteriorizatsiyasi, faoliyatning inson psixik taraqqiyotiga ta'siri haqida ma'lumot beriladi.

Nazorat savollari:

1. Faoliyat tuzilishini nimalar tashkil qiladi?
2. Faoliyat interiorizatsiyasi nima?
3. Faoliyat eksteriorizatsiyasi nima?
4. Faoliyatning psixik jarayonlar bilan bog`liqligini qanday izohlaysiz?

Uchinchi savol: Faoliyat shaxsning boshqa kishilar bilan ma'lum munosabatlar sistemasida amalga oshirilishi, faoliyatning asosiy turlaridan biri sifatida o`yinga psixologik ta'rif beriladi, o`qish faoliyatning psixologik xususiyatlari etakchi mehnat faoliyati va uning psixologik xususiyatlari tushuntiriladi.

Nazorat savollari:

1. Faoliyat turlari haqida tushuncha bering.
2. O`yin faoliyatiga tavsif bering.
3. Ta'lim faoliyatiga ta'rif bering.
4. Etakchi faoliyat haqida gapiring.
5. Pedagogik faoliyatga tushuncha bering.

**TO`rtinchi savol:** Harakatlarning avtomatlashuvi va malakalarning yuzaga kelish haqida tushuncha berish, malakaga ta'rif berish, ishni bajarishda sensor, ya'ni hissiy nazorat usullarining o`zgarishi, ish harakatini markaziy boshqarish usullarining o`zgarishi haqida tushuncha beriladi. Faoliyatni o`zlashtirish va mashqlar, ko`nikma haqida, odatlar haqida ma'lumot beriladi.

Psixologik masalalar echish:

Aqliy malakalarni shakllantirish.

Og`zaki hisoblash uchun materiallar.

Yig`indidan biror sonni ayirish usuliga asoslangan misollar echish.

$$\begin{array}{ll} 157 + 99 = 256 & (157 + 100) - 1 = 256 \\ 262 + 98 = 360 & (262 + 100) - 2 = 360 \\ 550 + 94 = 644 & (550 + 100) - 6 = 644 \\ 360 + 89 = 449 & (360 + 90) - 1 = 449 \end{array}$$

Ayirmaga biror sonni qo`shish usuliga asoslangan misollarni echish.

$$\begin{array}{ll} 237 - 97 = 140 & (237 - 100) + 3 = 140 \\ 596 - 87 = 509 & (596 - 90) + 3 = 509 \\ 725 - 95 = 630 & (725 - 100) + 5 = 630 \\ 572 - 66 = 506 & (572 - 70) + 4 = 506 \end{array}$$

Psixologik masalalarni echish tartibi: Sinaluvchi talabaga dastlab birinchi guruhdagi misollarni echish taklif qilinadi va uni sonlarni yig`indidan ayirish usulidan foydalangan holda misollarni echish kerak deb ogohlantirib qo`yiladi. Har bir misolni echish uchun qancha vaqt ketganligi va bunda yo`l qo`yilgan xatolar yozib boriladi. Shu ma`lumotlar asosida sinaluvchi talabadan hisoblash malakasi hosil bo`lishi jarayoni kuzatib boriladi. Misollar echib bo`lingandan keyin darhol sinaluvchiga ikkinchi guruhdagi misollarni ayirmaga son qo`shish usulidan foydalangan holda echish taklif qilinadi. Bunda ham avvalgi misoldagi singari har bir misolni echish uchun ketgan vaqt va bunda yo`l qo`yilgan xatolar yozib boriladi.

Birinchi va ikkinchi guruh misollarini hal etish natijalarini bir-biriga taqqoslash orqali aqliy malakalarga tavsif berish uchun asos bo`lishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. A.V.Petrovskiy. "Umumiy psixologiya", 1992 yil.
2. P.V.Ivanov. "Umumiy psixologiya", 1972 yil.
3. A.N.Leont'ev. "Problem' razvitiya psixika", MDU, nash. 1972
4. M.Voxidov. Psixologiya. 1982 yil
5. E.Goziev. Psixologiya. 1994 yil
6. Turgunov. Psixologiya termenlarining ruscha - o`zbekcha izohli lug`ati. 1975 y.
7. Psixologiya atlas. M.Gomezoz tahririda. 1986 yil.
8. Psixologiya izohli lug`ati. 1997 yil
9. Umumiy psixologiya, yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya. M.Gomezoz tahririda 1982 yil.
10. A.A.Leont'ev. Obshaya xarakteristika psixika jivotn'x.
11. E.Goziev. "Intelлект psixologiyasi". 1996 yil.
12. E.Goziev. Inson psixikasining rivojlanishi. 1996 yil.
13. Foziev E. "Umumiy psixologiya " 1-kitob, Toshkent, 2002
14. M.G.Davletshin. "Psixologiya", Izohli lugati, Toshkent 1998

16.M.G.Davletshin. «Umumiy psixologiya», Toshkent, 2002.

4-mashg`ulot. Psixologiyada shaxs tushunchasi.4-s

Reja:

1. Psixologiyada shaxs tushunchasi.
2. Shaxsning tuzilishi.
3. Shaxsning rivojlantiruvchi, xarakatlantiruvchi kuchlar.
4. Komil inson tushunchasi.
5. O`quvchi shaxsini o`rganish metodlari.

4-mashg`ulot savollariga javob berish dasturi

Birinchi savol: individ haqida tushuncha, shaxs va uning individual xususiyatlari, ular o`rtasidagi bo`lanishlar, individuallik, shaxs faolligining manbai sifatida ehtiyojlar haqida tushuncha beriladi.

Nazorat savollari:

1. Shaxs tushunchasiga ta`rif bering.
2. Individ, individuallik tushunchalarini izohlang.
3. Shaxs tushunchasiga oid nazariyalar haqida ma`lumot bering.
4. Shaxs tushunchalariga oid ta`riflarni keltiring (K.K.Platonov, L.S.Rubenshteyn, A.V.Petrovskiy, A.N.Leont`ev)


Ikkinchi savol: Shaxs va uning tuzilishi haqida, shaxs faolligining yo`nalishi, shaxsning shakllanishida o`z-o`ziga baho berish haqida ma`lumot beriladi.


A.V.Petrovskiy shaxs 3 ta tarkibiy strukturasini ajratdi:

1. Individning ichki tuzilmasi (Intraindividlik) – u insonni temperamenti, xarakteri, qobiliyatini tuzilishida o`z aksini topib, u zarur, lekin shaxs psixologiyasini bilish uchun etarli emas.

2. Shaxsni real mavjud b`ulishi uchun uni predmetlar bilan faoliyat jarayondagi munosabatini o`z ichiga olib, insonni ma`lum xarakteristikalarini fazoda individni organik tanasidan tashqarida izlash lozim b`ulib, u shaxsning interindivid tuzilmasini tashkil qiladi.

3. Individ usti (metaindivid) tuzilma markazida insonni faoliyat jarayonida insonlardan muloqat jarayonida boshqalarga ta`sir va boshqalardan olinadigan ta`siri sifatida namoyon bo`lib, u persona ravishda namoyon b`uladi. A.V.Petrovskiy u`z strukturasiga 3 tuzilmani kiritgan. Bu shaxs individualligi, uni shaxslararo munosabatlarda namoyon bo`lishi va boshqa insonlarga ta`sir eta olishi bo`lib, shaxs doimo shu uchlikda namoyon bo`lishi va individlararo, ijtimoiy munosabatlar sub`ekti sifatida mavjud bo`lishi lozim.





S.L.Rubeshyeyn bo'yicha shaxs strukturasi quyidagi ko'rinishiga izoh bering.

Shaxs strukturasi bo'yicha yana qaysi psixologlarning shaxs tuzilmasini keltira olasiz?

Uchinchi savol: Inson shaxsini shakllantirish qonuniyatlarini ob'ektiv xarakteri, odamning rivojlanishida va shaxsning kamolotida biologik va ijtimoiy omillarning roli haqida, odamning psixik rivojlanishi va shaxs kamolotidagi harakatlantiruvchi kuchlar haqida ma'lumot beriladi.

O'zo'ziga baho berish – psixologiyada o'z shaxsiy psixologik xususiyatlari va fazilatlar, yutuq va kamchiliklari, shuningdek muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklarini baholash tushuniladi. O'z-o'ziga baho berish adekvat, yuqori va past bo'lishi mumkin. Buni shartli ravishda: **$S \approx n$ (adekvat) $S > n$ (yuqori) $S < n$ (past)**. Bunda – S - o'z-o'ziga baho berish, n – imkoniyat. Shaxsda alohida e'tiborga frustratsiya xususiyati ham loyiq.

Frustratsiya – shaxsni o'z muvaffaqiyatligini chuqur emotsional his qilishi bo'lib, u ilojisizlik, umidsizlik bilan namoyon bo'ladi.

Frustratsiya – shaxsni agressiv yoki anatik xulq - atvori sifatida kechadi. Shu bilan birga shaxsda tolerantlik kabi xususiyat ham uchraydi. Bu shaxsni u yoki bu faktorga befarqligi yoki munosabatning mavjud emasligidir. U uch turdi namoyon bo'ladi – muvaffaqiyatsizlik, fikrlovchi munosabat, ichki bexalovatlilik va osoyishtalik.

Nazorat savollari:

1. Shaxsni rivojlantiruvchi va harakatlantiruvchi kuchlar nimalardan iborat.
2. Dunyoqarash nima?
3. E'tiqod, qiziqish, maqsad, g'oya, ishonch tushunchalarini izohlang.
4. Shaxsni tarkib topishida ta'lim va tarbiyaning roli haqida gapiring.

To'rtinchi savol: Komillik haqida yosh avlodni har tomonlama rivojlanishining asosiy omillari va shart-sharoitlari, har tomonlama madaniyatli kishilarga xos bo'lgan shaxsiy sifatlar hamda xususiyatlar haqida tushuncha beriladi.

Barkamol insonni baholash (E.G'oziev)

I. Shaxs haqida umumiy tushuncha

F.I.Sh. _____

Jinsi _____ yoshi _____

Ish va o'qish joyi _____

II. Shaxsning yo'nalganligi.

№	Fazilatlar nomi	Kuchsiz	O`rtacha	Kuchli	O`rta kuchli
1	2	3	4	5	6
1.	Iymon e'tiqodlilik	1	2	3	4
2.	Sobit qadamlilik	1	2	3	4
3.	Jamiyatlilik	1	2	3	4
4.	Beg`arazlik	1	2	3	4
5.	Haqgo`ylik	1	2	3	4
6.	Kamtarlik	1	2	3	4
7.	Adolatlilik	1	2	3	4
8.	Insonparvarlik	1	2	3	4
9.	Fidoiylik	1	2	3	4
10.	Vatanparvarlik	1	2	3	5

III. Shaxsning umumiy xususiyatlari

1	2	3	4	5	6
1.	Muloqotmandlik	1	2	3	4
2.	Tashabbuskorlik	1	2	3	4
3.	Harakatchanlik	1	2	3	4
4.	Zukkolik	1	2	3	4
5.	Sinchkovlik	1	2	3	4
6.	Mehantsevarlik	1	2	3	4
7.	Qat'iyatlilik	1	2	3	4
8.	Qulaylilikka intiluvchanlik	1	2	3	4
9.	Mustaqillik	1	2	3	4
10.	O`zini boshqaruvchanlik	1	2	3	4

IV. Shaxsning o`ziga xos xususiyatlari

1	2	3	4	5	6
1.	O`zgalarning psixologik xususiyatlari va holatlarini tez ilg`ashga qobillik.	1	2	3	4
2.	O`zgalar ichki kechinmalari va hislarini O`zinikiday qabul qilishga moyillik.	1	2	3	4

3.	O`zga kechinmalar xatti-harakatlari va xulq-atvorini tahlil etishga qobiliyatlilik.	1	2	3	4
4.	O`zini xayolan o`zganing o`rniga qo`ya bilish o`quvchanligi	1	2	3	4
5.	O`zgalarning shaxsiy xususiyatlarini inobatga olgan holda ularga oqqilona munosabat bildirishga layoqatlilik.	1	2	3	4
6.	Shaxslararo munosabatlarni payqay oluvchanlik	1	2	3	4
7.	Ilg`or tajribalarni oson o`qib olishga zehnlilik	1	2	3	4
8.	Vaziyat qatnashchilari bilan umumiy til topishga zukkolik	1	2	3	4
9.	Shaxslararo muomalada shaxsiy pozitsiyaga egalik	1	2	3	4
10.	Xulq, faoliyat va muomalada odoblilik	1	2	3	4

V. Ijtimoiy ta'sir etuvchanlik

1	2	3	4	5	6
1.	Boshqalar e'tiqodli kishilarga o`zga xos omillarga va mantiqiy dalillashga ta'sir o'tkazishga topqirlik	1	2	3	4
2.	O`zining hissiyot va emotsiyasi bilan o`zgalarga ta'sir etishga o`quvchanlik	1	2	3	4
3.	Ishda va o`qishda muvaffaqiyatga erishuvda o`ziga ishonch	1	2	3	4

	uyʻotuvchanlik				
4.	Oʻziga va oʻzgalarga nisbatan talabchanlik	1	2	3	4
5.	Voqelikning muhim va nomuhim, ijobiy hamda salbiy tomonlariga xolisona baho beruvchanlik	1	2	3	4
6.	Tanqidiy fikrlarni mantiqan baholashga boʻlgan qobilik	1	2	3	4
7.	Tanqidiy fikrlarga nisbatan begʻarazlik	1	2	3	4
8.	Vaziyat va sharoitni toʻgʻri chamalashda mantiqiy mukammallik	1	2	3	4
9.	Fikr almashishda nutqiy qobiliyatlik	1	2	3	4
10.	Milliy gʻoya va milliy mafkurasiga sadoqatlilik	1	2	3	4

VI. Tashkilotchilikka qobiliyatlik

1	2	3	4	5	6
1.	Tashkilotchilikka nisbatan ehtiyojni sezishlik	1	2	3	4
2.	Tashkilotchilik faoliyatini suisteʻmol qilmaslik.	1	2	3	4
3.	Faoliyat mohiyatiga mustaqil kira bilishlik	1	2	3	4
4.	Oʻz zimmasiga javobgarlik va masʻuliyat tuygʻusini olishlik	1	2	3	4
5.	Tashkilotchilik faoliyatini zavq-shavq bilan ado etishlik	1	2	3	4
6.	Tashkilotchilik jarayonida oʻzidan qoniqish hissini	1	2	3	4

	in'ikos qilishlik				
7.	Tashkilotchilikni uddalashga bo'lgan layoqatlilik	1	2	3	4
8.	Vaziyat va sharoitga nisbatan tashkilotchilikda muvaffaqiyatlilik yoki barqarorlik	1	2	3	4
9.	Tashkilotchilikda tezkorlik va samaradorlik sifatlarida uyg'unlik	1	2	3	4
10.	Tashkilotchilikda ijodiylik va aql zakovatilik	1	2	3	4

VII. Tashkilotchilikka qobiliyatilik

1	2	3	4	5	6
1.	Tashkilotchilikka nisbatan qobiliyatilik: A) ko'pgina faoliyat turlariga B) faqat yagona faoliyat turiga	1	2	3	4
2.	Faoliyat ishtirokchilarining yosh davrlariga bo'yicha tashkilotchilik qobiliyatida tafovutlilik A) O'zidan katta yoshdagilarga B) O'zining tengqurlariga	1	2	3	4
3.	Shaxslararo munosabatga mutanosiblik A) distantiya (bevosita shakliga) B) kontakt (bevosita) V) har ikkalasi um	1	2	3	4

4.	Faoliyatni boshqarish uslubi bo'yicha A) harakatli davomiy B) faol jonli V) sustkash, xotirjam	1	2	3	4
5.	Boshqaruv psixologiyasiga ko'ra A) demokrativ B) liberal V) avtokrativ	1	2	3	4

Ushbu jadval asosida «Kamil inson» shaxsining shaxsiy sifatleri va xususiyatlarini baholang.

Beshhinchí savol: O'quvchi shaxsini o'rganishga oid metodikalar haqida ma'lumot berish. (Ayzenk testi, K.N.Tomsning «Shaxs so'rovnomasi», Kettel testi, E.G'oziev «Shaxsni o'z-o'ziga baho berish» shkalasi).

Mashqlar:

1. O'zingizga-o'zingiz savol-javoblar tarzida xat yozishga harakat qiling. Yozganda ko'p o'ylanmay, kallaga kelgan savolga mos tarzda javob yozing. Javoblarni sharhlash orqali o'zingizga xolis xulosa chiqaring.

2. "Yaqingacha mening psixikam to'g'risida nimalarni bilmas edimu, endi nimalarni bilaman?" degan savolga yozma javob yozing.

3. Tarqatilgan metodikalar orasida o'z-o'zini baholash metodikasini toping va avval o'ingizni tekshiring, so'ngra o'rtog'ingizdan iltimos iling.

Adabiyotlar:

1. A.V.Petrovskiy. "Umumiy psixologiya", 1992 yil.
2. P.V.Ivanov. "Umumiy psixologiya", 1972 yil.
3. A.N.Leont'ev. "Problem' razvitiya psixika", MDU, nash. 1972
4. E.Goziev. Psixologiya. 1994 yil
5. Turgunov. Psixologiya termenlarining ruscha - o'zbekcha izohli lug'ati. 1975 y.
6. Psixologiya atlasí. M.Gomezó tahririda. 1986 yil.
7. Psixologiya izohli lug'ati. 1997 yil
8. E.Goziev. "Intellekt psixologiyasi". 1996 yil.
9. E.Goziev. Inson psixikasining rivojlanishi. 1996 yil.
10. Foziev E. "Umumiy psixologiya " 1-kitob, Toshkent, 2002
11. M.G.Davletshin. "Psixologiya", Izohli lugati, Toshkent 1998
12. M.G.Davletshin. «Umumiy psixologiya», Toshkent, 2002.
13. RNemov. Obshaya psixologiya. M., 1982.
14. S.L.Rubishteyn. Chelovek i mir. "Problemi obshaya psixologiya. M., 1973.

Qo`shimcha topshiriqlar:

Quyidagi mavzularda referat, doklad yozishga yoki test tuzishga harakat qiling.

1. Psixologiyada shaxs tushunchasi.
2. Komil inson psixologiyasi.
3. Barkamol shaxsni tarbiyalash.
4. Jamoa va shaxs.

Mavzuga oid ommaviy manbalardan foydalanish lozim.

5-mashg`ulot. Diqqat va xotira. 2-s

Reja:

6. Diqqat va uning turlari.
7. Diqqatning fiziologik mexanizmlari va o`ziga xos xususiyatlari.
8. Xotira va uning jarayonlari hamda turlari.
9. Xotiraning fiziologik mexanizmlari va nazariyalari.
10. O`quvchilar diqqatini va xotirasini o`rganish metodlari.

5-Mashg`ulot savollariga javob berish dasturi.

Birinchi savol: Diqqat va uning turlari (ixtiyoriy diqqat, ixtiyorsiz diqqat, ixtiyoriydan so`nggi diqqat) haqida ma'lumot berish, diqqat, uning inson hayoti va faoliyatidagi roli haqida tushuncha berish.

Diqqat turlati va ularni qiyosiy xarakteristikasi

Diqqat turi	Paydo bo`lish shartlari	Asosiy xarakteristikasi	Asoslari
Ixtiyoriy	Vazifani qabul qilishi	Vazifaga asosan yo`nalganlik, irodaviy zo`r berish, uzoq muddatli diqqatning to`planganligi toilqtiradi	Ikkinchi signal sistemasini etakchi o`rni
Ixtiyoriydan So`nggi diqqat	Qiziqishi bilan yuzaga kelgan faoliyatga "kirish"	Maqsadga yo`nalganlik saqlab qolinadi, toliqish bo`lmaydi, qiziqish ortadi.	Faoliyat jarayoniga bo`lgan qiziqishi dominantasidi.
Ixtiyorsiz diqqat	Kuchli qo`zg`atuvchi asosida yuzaga keladi.	Beixtiyoriylik, engillik, bir faoliyatdan ikkinchi faoliyatga tez o`tiladi.	Shaxsni qiziqishini namoyon qilyvch yoki xarakterlovchi dominanta

Nazorat savollari:

1. Diqqatga ta'rif bering.
2. Diqqat turlarini misollar yordamida tushuntiring.
3. Inson faoliyatida diqqatning ahamiyati nimada?

Ikkinchi savol: Diqqatning fiziologik mexanizmlari va o'ziga xos xususiyatlari (ko'lami, barqarorligi, bo'linishi, ko'chishi, parishonxotirlik) haqida tushuncha berish.

Nazorat savollari:

1. Diqqatning fiziologik mexanizmlarini nimalar tashkil qiladi?
2. Diqqatning tuzilishi deganda nimani tushunasiz?
3. Diqqat va ongning bog'liqligi haqida nima deya olasiz?
4. Diqqatning salbiy xususiyatlarini qanday izohlaysiz?

Uchinchi savol: Xotira, uning jarayonlari (esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish va unutish), hamda turlari (faollik xususiyatiga ko'ra, faoliyat maqsadiga ko'ra, materialni esda olib qolish muddatiga ko'ra) haqida ma'lumot berish.

Nazorat savollari:

1. Xotira jarayoniga ta'rif bering.
2. Xotiraning qanday jarayonlarini bilasiz?
3. Xotira turlari haqida ma'lumot bering.
4. Xotiraning boshqa bilish jarayonlari bilan bog'liqligini tushuntiring.
5. O'quv faoliyatida xotiraning roli haqida gapiring.

To'rtinchi savol: Xotiraning fiziologik mexanizmlari va xotira nazariyalari (fiziologik, bioximik va psixologik) haqida ma'lumot berish.

Nazorat savollari:

1. Xotiraning fiziologik mexanizmini nimalar tashkil qiladi?
2. Xotira nazariyalari haqida tushuncha bering.
3. Inson xotirasini yaxshi bo'lishi qanday omillarga bog'liq?
4. Xotiraning samaradorligi deganda nimani tushunasiz?
5. Xotiraning o'ziga xos individual uslubi nimalardan iborat?

Beshinchi savol: O'quvchilar diqqatini va xotirasini o'rganish metodlari haqida ma'lumot berish. 4. Maktab o'quv tarbiya jarayonini tashkil etishda diqqatning barcha turlariga asosiy xususiyatlarini hisobga olish zarur. O'quv jarayonida ixtiyorsiz diqqat muhim rol o'ynaydi. Ixtiyorsiz diqqatning boshlangich sinflardagi roli ayniqsa kattadir. Chunki kichik yoshdagi o'quvchilarda diqqatni ixtiyoriy ravishda biror narsaga qaratish qobiliyati sust rivojlangan bo'ladi. Maktab ish tajribasida ixtiyoriy va ixtiyorsiz diqqatni birga qo'shib olib borish va ixtiyorsiz diqqatga tayangan holda ixtiyoriy diqqatni tarbiyalash zarur. Butun o'qitish jarayonini to'g'ri va puxta uyushtirish o'quvchi diqqatini shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi. Diqqat ta'limning muvaffaqiyatliligi shartlaridan biri bo'lgani holda uning shakllanishi ham ushbu jarayonining o'zida yuz beradi.

O`quv faoliyati ayniqsa ixtiyoriy diqqatni tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir. O`quvchilarning dars paytidagi diqqati darsning tuzilish xususiyatlari bilan belgilanadi, o`rganilayotgan materialning mazmuniga ham, uning o`qituvchi tomonidan bayon qilinishiga ham bog`liq bo`ladi. O`quvchilar diqqatining safarbar etilishi o`qituvchi nutqning xususiyatlariga, uning aniqligi va ifodaliligiga va shu kabilarga ham bog`liqdir. Diqqatni jalb qilishda ko`rgazmalilik (kartinalar, jadvallar, chizmalar va boshqalar)dan maqsadga muvofiq foydalanish katta ahamiyatga ega. O`quvchilarning diqqatining uyushtirishida o`qituvchilarning izchil va muntazam talabchanligi muhim rol o`ynaydi. Ba`zi psixologlar (P.Ya.Gal`perin) diqqatni nazoratining alohida psixologik ta`siri deb tushunadilar. O`quvchilar diqqatining yosh davr xususiyatlarini ham, individual xususiyatlarini ham hisobga olish ta`lim tarbiya jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Masalan, kichik maktab yoshida diqqatning etarli darajada ob`ektga tûplanmaganligiga, jumladan aqliy faolikka etarli emasligiga, o`quv faoliyati ko`nikma va malakalarining shakllanmaganligiga, bola irodasining kuchsizligi sabab bûlishi mumkin.

Pedagogik faoliyatda diqqatning tashqi kûrinishidagi individual xususiyatlarni ham inobatga olish muhimdir. Tashqi belgilariga - aft - angorning o`zgachaligiga, yuzlarning ifodasiga va nigohning qaratilganligiga qarab diqqatning yo`naltirilganligini va uning to`planganligi darajasini aniqlash mumkin.

Koos kubiklari metodikasi 1923 yilda S.C Kons tomonidan taklif etilgan bo`lib, fazoda ish tutish, diqqat, ziyraklik ko`rish yasash xususiyatlarini o`rganishga mo`ljallangan. Bu metodika D.Wechslnerning (1959-1955) metodikasiga aqlni tekshirish subtesti sifatida kiritilgan.

Link kubi metodikasi diqqat barqarorligini, ziyrakligini, aniqlashga imkon beradi.

P`eron-Ruzer metodikasi ko`rish-yasash xususiyatlarini, maqsadga yo`nalgan ko`nikmalarini, egallash imkoniyatlarini, xarakterlarning yangi usullarini o`zlashtirishni o`rganishga mo`ljallangan. Bu metodika yordamida ixtiyoriy diqqat hajmi, uning barqarorligi haqida bilib olish mumkin.

Diqqatning ko`chishi, uzoq davom etadigan aqliy ishga qobiliyatini o`rganish maqsadida I.V.Kruk (1986) tomonidan taklif etilgan metodikaning o`zgartirilgan variantini etilgan metodikaning o`zgartirilgan variantini qo`llash mumkin.

Shul`t jadvali bo`yicha sonlarni izlash metodika diqqatning ko`chishi va bûlinish xususiyatlarini, sensomotor reaksiyalar tezligini ûrganish uchun foydalaniladi.

Krepelin bûyicha sanash va ûisoblash metodikadan murakkab sezgi ûarakat reaksiyalarini, ish qobiliyatini, ixtiyoriy diqqat barqarorligini aniqlash, psixik jarayonlar kechishining tezligini aniqlash uchun foydalanish mumkin.

Bulardan korrektur sinovi metodikasi diqqatning tebranishini ko`rish analizatori uzoq vaqt ishlaganda bir xil ko`ruv qo`zg`atuvchilarga nisbatan sinaluvchining charchashini aniqlashga imkon beradi.

Psixologiyada xotirani o`rganish uchun maxsus metodikalar mavjud.

R.Meili testi 1961 yilda ishlab chiqarilgan bo`lib, 7-14 yoshli bolalar kattalarning ko`rish va eshitish xotirasini o`rganishda foydalaniladi. Tadqiqot ikki bosqichdan iborat.

Birinchi bosqichda rasmda tasvirlangan predmetlarni xotirada olib qolish va kûrish xotirasi o`rganiladi. Ikkinchi bosqichda tadqiqotchi o`qib bergan so`zlarni, predmetlarning nomlarini eshitib esda olib qolish qobiliyati o`rganiladi. Bu tadqiqotlar bir kunda ûtkazilmaydi, bu esa xotiraning o`rganilyoetgan xususiyatlarini yaxshilab tahlil qilishga imkon beradi.

Ko`rish xotirasi xususiyatlarini D.Wechsler (1945) taklif etilgan metodika yordamida o`rganish mumkin. Bu metodika xotira shkalasini o`rganish subtestlaridan biridir. Sinaluvchiga turli geometrik figuralar tasvirlangan rasmlarga qarash taklif etiladi. Har bir rasm sinaluvchiga 10 soniya kûrsatiladi. Keyin sinaluvchi toza oq qog`ozda ko`rgan narsasini qayta esga tushirib, chizish kerak. Tajriba natijalarini miqdoriy taùil qilish kerak.

Ko`rish xotirasini o`rganish testini Benton (1952) turli shakldagi rasmlarni ko`rib esda olib qolish xususiyatlarini ishlab chiqqan. Sinaluvchiga kûrsatiladigan rasmlar 3 guruhga birlashtirilgan. Barcha guruhlar o`zaro teng. Ularning har biri 10 ta namuna kartochkalardan tuzilgan. Kartochkalarda bir nechta oddiy geometrik figuralar aks ettirilgan.

Bavosita esda olib qolish metodikasi yordamida (A.N.Leont'ev, 1928) faqatgina assotsiativ, mantiqiy xotirani emas, balki tafakkur xususiyatlarini ûam aniqlash mumkin.

Bavosita esda olib qolish xususiyatlarini piktogramma, ya'ni rasmlı assotsiatsiyalar metodi orqali ham o`rganish mumkin. Piktogramma eksperimental psixologik tadqiqot usuli sifatida birinchi marta L.V.Zankov (1935) tomonidan qo`llanilgan.

Rasm va so`z o`rtasidagi assotsiativ aloqani shakllantirish jarayonida inson shunday mazmunli aloqalarni tanlaydiki, uning fikricha, bu rasmlar so`zni eslab qolish uchun yaroqli bo`ladi. (A.R.Luriya, 1967). Shuning uchun ham bu metodika orqali tadqiqot o`tkazish faqatgina assotsiativ, bavosita xotira xususiyatlarigina emas, balki fikrlash faoliyati xarakteri, tushunchali tafakkurning rivojlanish darajasi haqida ham bilish imkonini beradi.

(S.V.Longinova, S.Ya. Rubinshteyn, 1972 B.R.Xersonskiy, 1988)

Adabiyotlar:

1. A.V.Petrovskiy. "Umumiy psixologiya", 1992 yil.
2. P.V.Ivanov .“Umumiy psixologiya”, 1972 yil.
3. A.N.Leont'ev. "Problem' razvitiya psixika" , MDU, nash. 1972 yil.
4. E.Goziev. Psixologiya. 1994 yil
5. Turgunov. Psixologiya termenlarining ruscha - o`zbekcha izohli lug`ati. 1975 yil.
6. Psixologiya atlası. M.Gomezı tahririda. 1986 yil.
7. Psixologiya izohli lug`ati. 1997 yil.
8. E.Goziev. "Intellect psixologiyasi". 1996 yil.
9. E.Goziev. Inson psixikasining rivojlanishi. 1996 yil.
10. Foziev E. "Umumiy psixologiya " 1-kitob, Toshkent, 2002 yil.
11. M.G.Davletshin. "Psixologiya", Izohli lugati, Toshkent 1998 yil.

12. M.G.Davletshin. «Umumiy psixologiya», Toshkent, 2002 yil.
13. RNemov. Obshaya psixologiya. M., 1982 yil.
14. S.L.Rubishteyn. Chelovek i mir. "Problemi obshaya psixologiya. M., 1973 yil.

6-mashg`ulot. Tafakkur. 2-s

Reja:

1. Tafakkur bilishning yuqori formasi sifatida.
2. Tafakkur turlari va jarayonlari .
3. Tafakkur va nutq. Nutqning fiziologik mexanizmlari.
4. Fikr yuritish faoliyatining motivlari.
5. Yosh bolalarning tafakkurining rivojlanishi.

5-Mashg`ulot savollariga javob berish dasturi.

Birinchi savol: Tafakkur haqida umumiy tushuncha; tafakkurning boshqa psixik jarayonlar bilan bog`liqligi; tafakkurning eng murakkab psixik jarayon ekanligi; tafakkurning nerv- fiziologik asoslari haqida tushuncha beriladi.

Nazorat savollari:

1. Tafakkur haqida tushuncha bering.
2. Tushunish va tafakkur qilishning ijtimoiy mohiyati nimadan iborat?
3. Tafakkur bilishning eng oliy va yuqori darajadagi shakli ekanligini izohlang.
4. Tafakkurning boshqa bilish jarayonlaridan farqi nimada?

Ikkinchi savol: ko`rgazmali harakat tafakkuri; ko`rgazmali obrazli tafakkur, konkret va mavhum tafakkur haqida hamda insonning fikr yuritish faoliyatida foydalaniladigan jarayonlar: taqqoslash, analiz, sintez, mavhum abstraktsiyalashtirish, umumlashtirish, konkretlashtirish, turkum sinflarga ajratish kabilar haqida tushuncha berish kerak.

Tafakkur turlari

Shakliga ko`ra	Ko`rgazmali harakat, ko`rgazmali obrazlar va konkret,mavhum
Ko`riladigan masalaning xarakteriga ko`ra	Nazariy, amaliy
Ijodiylik elementiga ko`ra	Konvergent, divergent
Yangiligi va noyobligiga ko`ra	Reproduktiv, produktiv(ijodiy)


Yuqorida keltirilgan jadvalni izohlash kerak, masalan, konvergent- fikrlash masalaning echimi faqat bitta bo`lgan holatda, divergent esa fikrning shunday turiki u, shaxsga bir muammo yoki masala yuzasidan birdaniga bir nechta echimlar paydo bo`lishini taqozo etadi: ijodiy tafakkur divergent shaklida bo`lsa, u ijodiy parvoz, yangiliklarni kashf etishga asos bo`ladi.

Nazorat savollari:

1. Tafakkur turlarini ko'rsating va misollar yordamida izohlang.
2. Tafakkur jarayonlarini haqida ma'lumot bering.
3. Ijodiylik elementiga ko'ra konvergent va divergentga misol keltiring.
4. Mavzu yuzasidan psixologik masala tuzing.

Uchinchi savol: fikr yuritish formalaridan: tushuncha va uning turlari; hukm va uning turlari; xulosa va uning turlari; tafakkurda muammoli vaziyat va masala echish haqida tushuncha beriladi. Tafakkurning nutq bilan bog'liqligi, nutqning fiziologik mexanizmlari, nutqning hosil bo'lishi haqida ma'lumot beriladi.

Nutqni paydo bulishi va amalda qo'llanishini qquyidagi sxemada ko'rish mumkin:



Nazorat savollari:

1. Tafakkur qilish shakllariga nimalar kiradi?
2. Mantiqiy fikrlang. (tushuncha, hukm, xulosa)
3. Muammoli vaziyat va uning echimi.
4. Nutq va uning turlari.
5. «Temirni qizig'ida bos» degan gapni ma'nosini izohlab bering.
6. Yuqoridagi jadval asosida nutqning hosil bo'lishini izohlang.

To'rtinchi savol: shaxsga xos individual xususiyatlar bilan bog'g'liq holda: tafakkurning mustaqilligi, epchilligi, fikrning tezligi, hukm va xulosaning asoslanishi, ishonchliligi va hakovolar haqida tushuncha berilishi zarur shuningdek, fikr yuritish faoliyatini motivlari

(O'ziga xos bilish, anglangan va anglanmagan motivlar) haqida tushuncha beriladi.

Nazorat savollari:

1. Tafakkurning individual xususiyatlari nimalardan iborat?
2. O'ziga xos bilish motivlarini tushuntiring.
3. Anglanmagan motivlar deganda nimani tushunasiz?

Beshinchi savol: O'quvchilar tafakkurini o'rganish metodlari, mustaqil fikrlash, tafakkurni rivojlantirish haqida ma'lumot berish lozim.

Nazorat savollari:

1. Mustaqil fikrlash deganda nimani tushunasiz?
2. Tafakkurni qanday rivojlantirish mumkin?

Qo`shimcha topshiriqlar: Mantiqiy tafakkurni shakllahtirish.

1. Kitob javonida tanlangan asarlarning ikki tomi turardi. Birinchi tomi 300 betdan, ikkinchi tomi 200 betdan iborat. Javonda kitob qurti paydo bo`lib, kitoblarni kemira boshladi. U birinchi tomning birinchi betidan, ikkinchi tomning so`nggi betigacha kemirib tashladi. Kitob qurti necha betni kemirgan?
2. Bolalikdan boshlab do`st bo`lgan ikki kishi uchrashib qolishdi va ular o`rtasida shunday suhbat bo`lib o`tdi:
-Men seni necha yildan beri ko`rmagan edim va sen haqingda hech gap eshitmagan edim.
 - Men esa qiz ko`rdim
 - Ismini nima qo`yding?
 - Onasini ismini qO`ydim.
 - Nafisa necha yoshga kirdi?

Suhbatdoshi qizning ismini qayoqdan biladi?

Adabiyotlar:

1. A.V.Petrovskiy. "Umumiy psixologiya", 1992 yil.
2. P.V.Ivanov . "Umumiy psixologiya", 1972 yil.
3. A.N.Leont'ev. "Problem' razvitiya psixika" , MDU, nash. 1972 yil.
4. E.Goziev. Psixologiya. 1994 yil.
5. Turgunov. Psixologiya termenlarining ruscha - o`zbekcha izohli lug`ati. 1975 yil.
6. Psixologiya atlas. M.Gomezoz tahririda. 1986 yil.
7. Psixologiya izohli lug`ati. 1997 yil.
8. E.Goziev. "Intellekt psixologiyasi". 1996 yil.
9. E.Goziev. Inson psixikasining rivojlanishi. 1996 yil.
10. Foziev E. "Umumiy psixologiya " 1-kitob, Toshkent, 2002 yil.
11. M.G.Davletshin. "Psixologiya", Izohli lugati, Toshkent 1998 yil.
12. M.G.Davletshin. «Umumiy psixologiya», Toshkent, 2002 yil.
13. RNemov. Obshaya psixologiya. M., 1982 yil.
14. S.L.Rubishteyn. Chelovek i mir. "Problemi obshaya psixologiya. M., 1973 yil.
15. A. I. Shcherbakov «Umumiy psixologiyadan amaliy mashg`ulotlar» Toshkent «O`qituvchi» 1984 yil.

7-mashg`ulot. Yosh davrlar psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanining predmeti va metodlari. 2-s

Reja:

1. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya fanining predmeti, vazifasi va metodlari.
2. Yosh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanining asosiy bulimlari.
3. Kichik maktab yosh davrlarining psixologik xususiyatlari.

7-Mashg`ulot savollariga javob berish dasturi.

Birinchi savol: Yosh davrlari va pedagogika va psixologiya fani predmeti, vazifasi va metodlari haqida ma'lumot berish, yosh davrlari va pedagogika va psixologiya fanining rivojlanishi tarixi, sharq mutafakkirlarining psixologik qarashlari va hozirgi holati haqida tushuncha beriladi.

Nazorat savollari:

1. Yosh davrlari psixologiyasi nimalarni o`rganadi?
2. Pedagogik psixologiyaning vazifasi nimadan iborat?
3. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya fanining vazifasi nimadan iborat?
4. Yosh davrlari psixologiyasining metodlarini izohlang.
5. Yosh davrlari va pedagogik psixologiyaning bugungi kundagi holati haqida tushuncha bering.

Ikkinchi savol: Inson shaxsnining tarkib topishi va psixik rivojlanishining sharoitlari, biologik va ijtimoiy omillar, yosh davrlari psixologiyasining asosiy bo`limlari (maktabgacha yosh davri, kichik maktab yosh davri, o`smirlik, o`spirinlik) bo`limlari haqida ma'lumot beriladi. Yosh davrlarga tabaqalash muammolari haqida rus olimlarining fikrlarini (L.S.Vigotskiy, P.P.Blonskiy, B.G.Anan'ev, D.B.Elkonin, A.V.Petrovskiy) izohlash.

Yosh davrlarda yangi psixologik o`zgarishlar va etakchi faoliyat ta`siri haqida 2-tablitsada ko`rsatigan.

Yosh davri	Etakchi faoliyat	Yoshdagi yangiliklar
Go`daklik (1 yoshgacha)	Bevosita emotsional muloqot	Muloqot ehtiyoj emotsional munosabatlar
Ilk bolalik (1-2 yosh)	Predmet-manipulyativ (harakatli) faoliyat	Nutq va ko`rgazmali arakat taffakuri
Maktabgacha yosh davri (3-6 yosh)	Rolln o`yin	Ijtimoiy-foydali, jtimoiy bahoga ega bo`lgan faoliyatga ehtiyoj, o`qish-ta`limga tayyorgarlik.
Kichik maktab yoshi (7-10 yosh)	Ta`lim, o`qish	Psixik jarayon va holatlarning rivojlanishi
O`smirlik davri (11-14 yosh)	Ijtimoiy-foydali mehnatda muloqot	O`-o`ziga baho berish, atrofga tanqidiy qarash, katta bo`lishga intilish, guruhiiy hayot normalariga bo`sinish.
O`smirlik davri (15-17)	O`quv-kasb faoliyati	Dunyoqarash e`tiqod, orzu,

yosh)		ideal, kasb qiziqish
-------	--	----------------------

Nazorat savollari:

1. Psixik taraqqiyotning omillari, shartlari va harakatlantiruvchi kuchlari haqida ma'lumot bering.
2. Yosh davrlarga tavsif bering.
3. Yosh davrlarni taqalash haqidagi turli nazariyalar haqida ma'lumot bering.
4. Yuqorida keltirilgan jadvalni izohlang.

Uchinchi savol: Kichik maktab yoshidagi bolalarning psixik rivojlanishi, aqliy rivojlanishi, O'quv faoliyatining xususiyatlari, boshlan¹/₂ich sinf O'quvchilar shaxsining shakllanishi haqida tushuncha beriladi.

Nazorat savollari:

1. Kichik maktab yoshdagi o'quvchilarning o'ziga xos psixologik xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Bolalar intellektual rivojlanishda kichik maktab davrining ahamiyati.
3. O'quv jarayoni davomida yuzaga keladigan muammolar.
4. Kichik maktab yosh davridagi bola shaxsi rivojida yuzaga keladigan yangilanishlar nimalardan iborat?

Psixologik masalalar echish.

1. O'quvchilar 1-sinfda dars haqida o'qituvchiga tez-tez murojaat qilib, Sardorni qarang, kerakli ustun qolib, boshqa ustundagi misollarni echayapti, Anvar unga noto'g'ri ko'rsatib berdi yoki Gulnora misolni mutloqa echmadi deyдилar yoki boshqa shunga o'xshash gaplarni aytadilar. Boshqalari o'rtog'ining misol yoki masalani noto'g'ri echayotganini ko'rib qoladida, dars paytida bor ovozi bilan «ana uning xatosi bor» deb baqirib yuboradi. Yo bo'lmasa, hamma jim o'tirgan paytda o'rinlaridan turib, butun sinfga eshitaladigan qilib, «ana Bekzod uchta misolni echmasdan boshqasiga o'tib ketdi» deb yuboradi.

Savol:

1. 1 – sinf o'quvchilarining bunday xatti-harakatlarini nimalar bilan izohlash mumkin?
2. O'qituvchining xatti-harakatlari o'quvchilar shaxsni rivojlantirishga ta'sir ko'rsatishi hamda sinfda jamoatchilik munosabatlarining shakllanishiga yordam berish uchun bunday hollarda u qanday harakat qilmog'i kerak?

2. Bola nima uchun darsga kelmaganligini izohlovchi xat olib keldi. «Sen chindan ham kasal bo'lib qoldingmi?» deb so'raydi undan o'qituvchi. Bola churq etmay turadi. «Xo'sh, bu xatni chindan ham sening onang yozib berdilarmi?» deb so'raydi yana

O`qituvchi. Bola javob bermaydi. «Xo`sh, unda bu xatni kim yozdi?» deb so`rashda davom etadi O`qituvchi. «hech kim» deb keskin javob beradi bola.

Savol:

1. Xo`sh, sizning fikringizcha, bola nima uchun o`qituvchiga shunday javob berdi?
2. O`qituvchining o`rnida siz bo`lganingizda qanday harakat qilgan bo`lardingiz?

Ushbu mavzu yuzasidan tuzilgan test savollari asosida talabalarning bilimlari mustahkamlanadi.

Adabiyotlar:

1. I.A.Karimov. O`zbekiston Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo`lida. T.: "O`zbekiston". 1995 yil.
2. I.A.Karimov. Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: 1997.
3. I.A.Karimov. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: "O`zbekiston". 1997.
4. E.Goziev. Psixologiya. 1994 yil
5. A. I. Shcherbakov. «Umumiy psixologiyadan amaliy mashg`ulotlar», Toshkent, «O`qituvchi» 1984.
6. A. I. Shcherbakov. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiyadan praktikum. Toshkent, «O`qituvchi», 1991.
7. M.G.Davletshin., Sh.Do`stmuhammedova. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya, Toshkent, 2004.
8. Xoxlova. Talabalar uchun psixologiyadan topshiriqlar, Toshkent, 1994.
9. V.Karimova. Psixologiya, Toshkent, 2000.

8-mashg`ulot. O`smirlik davri shaxsning rivojlanishining psixologik xususiyatlari. 2-s

Reja:

1. O`smirlik davri rivojlanishning etakchi omillari
2. Psixik rivojlanishdagi biologik va ijtimoiy omillar ustidagi uzaro munosabatlar dinamikasi
3. O`smirlar bilish jarayonidagi sifatiy uzgarishlar
4. O`smirlar xulqiy chetlanishidagi mexanizmlari

Birinchi savol: O`smirlik davrining psixologik xususiyatlari va rivojlanishidagi etakchi omillar haqida ma`lumot beriladi.

Nazorat savollari:

1. O`smirlik davrining rivojlanishining yetakchi omillari nimalardan iborat?
2. O`smirlik yoshining psixologik xususiyatlari.
3. O`smirlik davrida etakchi faoliyat haqida ma`lumot bering.
4. O`smirlarning kattalar bilan o`zaro munosabati qanday kechadi?

Ikkinchi savol: O`smirlik davrida shaxsning shakllanishi, o`smirlik davri «o`tish davri», «++rizis davri», «qiyin davr» haqida ma`lumot beriladi.

Nazorat savollari:

1. O`smirlik davrida psixik rivojlanishdagi biologik va ijtimoiy omillar nimalardan iborat?
2. O`smirlik davrida «o`tish davri»ni izohlang.
3. «Krizis davri», «qiyin davr»lariga izoh bering.
4. O`smirlik davri psixik rivojlanishida keskin burilish davri haqida tushuncha bering.

Uchinchi savol: O`smir bilish jarayonidagi sifatiy o`zgarishlar, intellektual rivojlanishi, O`smirlik davrida shaxsning shakllanishi haqida ma`lumot beriladi.

Nazorat savollari:

1. O`smirlarning intellektual rivojlanishini izohlang.
2. O`smirlarda bilish jarayonlari taraqqiyoti qanday kechadi?
3. O`smirlar psixik rivojlanishida yangi hislatlarning paydo bo`lishi haqida ma`lumot bering.

Psixologik vaziyatlar.

1. O`qituvchi avtobusda borayotganida shunday hodisani ko`radi: o`smir o`tirib olgan, uning yonida katta yoshdagi ayol turib ketmoqda. Nihoyat ayol qo`pollik bilan o`smirni uyaltirib, o`ziga joy bo`shatib berishni talab qiladi. Ayolning qo`pol muomalasidan ranjigan o`smir joy bo`shatish o`rniga biroz naridagi joylarni ko`rsatib, «Marhamat qilib, borib o`tiring» deydi.

2. Qobiliyatli o`quvchi o`ziga berilgan o`quv topshiriqlarini sira jon koyitmasdan qo`l uchida bajaradi. Bunda u shu tarzda bajargan ishi ham boshqalarnikidan yomon chiqmasligiga ishonadi.

**To`rtinchi savol:** «Tarbiyasi qiyin» o`smir xulq-atvorida salbiy xususiyatlar paydo bo`lishining sabablari, bu yoshdagi shaxs rivojlanishi umumiy qonuniyatlari, «tarbiyasi qiyin» o`smirlarda xulq-atvor buzilishining biologik omillari va ularning oldini olish haqida ma`lumot berish.

Nazorat savollari:

1. «Tarbiyasi qiyin» o`smir xulq-atvoridagi salbiy xususiyatlarning paydo bo`lishining sabablari nimalardan iborat?
2. Oilaviy tarbiyadagi xatolar haqida tushuncha bering.
3. Ba`zi bir «tarbiyasi qiyin» o`smirlarda xulq-atvor buzilishdagi biologik omillari.

4. Tarbiyasi qiyin o'smirlarni qanday guruhlarga ajratish mumkin?
5. Tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan ishlash va ularga psixologik yondoshuv.

Adabiyotlar:

1. I.A.Karimov. O'zbekiston Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T.: "O'zbekiston". 1995.
2. I.A.Karimov. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: 1997.
3. I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: "O'zbekiston". 1997.
4. A.Z.G'afarov., A.X.Yugay. Pedagogik amaliyot. Toshkent, 2002.
5. M.G.Davletshin., S.M.To'ychieva. Umumiy psixologiya. Toshkent, 2002.
6. M.G.Davletshin. Zamonaviy maktab o'qituvchisi psixologiyasi. – Toshkent, 1998.
7. A.I.Shcherbakov. Yosh psixologiyasi va pedagogic psixologiyadan praktikum. Toshkent, 1994.
8. Psixologiya. Qisqacha izohli lug'at. Toshkent, 1998.
9. E.G.G'oziyev. Psixologiya. Toshkent, 1994.
10. V.Karimova. Psixologiya. Toshkent, 2000.
11. A.Ibrohimov va b. Vatan tuyg'usi. T.: "O'zbekiston". 1997.

9-mashg'ulot. O'qituvchi psixologiyasi.

Reja:

5. Jamiyatda o'qituvchining o'rni va vazifalari. O'qituvchiga qo'yiladigan talablar.
6. O'qituvchining kasbiga xos xislatlar.
7. Pedagogik qobiliyatlar.
8. O'qituvchining o'z malakasini oshirib borishining muammolari.

Birinchi savol: Jamiyatda o'qituvchining tutgan o'rni, vazifalari, unga qo'yiladigan talablar, o'qituvch faoliyatining psixologik tuzilishi va uning eng muhim xislatlari, pedagogik faoliyati haqida tushuncha beriladi.

Nazorat savollari:

1. Pedagogik faoliyat deganda nimani tushunasiz?
2. Jamiyatda o'qituvchining tutgan o'rni haqida fikringizni bildiring.
3. Bugungi kunda o'qituvchiga qo'yiladigan talablar nimalardan iborat?
4. O'qituvchining eng muhim xislatlari haqida tushuncha bering.

Ikkinchi savol: O'qituvchi ta'lim va tarbiya jarayoning tashkilotchisi ekanligi, kasbiga xos xislatlari, o'qituvchidagi eng zarur xislatlarni aniqlash bo'yicha psixologlarning qarashlari, olib borgan tadqiqot ishlari haqida ma'lumot berish.

Nazorat savollari:

1. O`qituvchining shaxsiy xislatlari nimalardan iborat?
2. Kasbiga xos bilimi, tashkilotchilik malakalari haqida ma`lumot bering.
3. O`qituvchining ijodiy xislatlari haqida tushuncha bering.
4. O`qituvchining o`quvchilar bilan pedagogik muloqotning o`ziga xos tomonlari haqida ma`lumot bering.

Mashq va topshiriqlar.

1. Breynshtorming uchun quyidagi mavzularni taklif etish mumkin:
 - Yomon o`qituvchi – bu
 - Yaxshi (yomon) – ma`ruza
 - Men loqaydlik qilsam
 - XXI asr yoshlari qanday bo`ladi
2. 2 minut ichida turli mavzularda ommaviy ma`ruzalar matnini tayyorlash kerak. Quyidagi mavzular taklif etiladi: “Yoshlar muammosi”, “Men o`qituvchi bo`lganimda”, “Rahbarlik mansabmi yoki talantmi?” va h.

Uchinchi savol: Pedagogik qobiliyatlar haqida ma`lumot beriladi.

Nazorat savollari:

1. Qobiliyat tushunchasini izohlang.
2. O`qituvchi shaxsida qanday pedagogik qobiliyatlar mujassam bo`lish lozim.
3. Didaktik qobiliyat haqida tushuncha bering.
4. Avtoritar va kommunikativ qobiliyatlar deganda nimani tushunasiz?

Mashq va topshiriqlar.

1. “TANISHUV”: Turli yosh, jins guruhdagi shaxslarning tanishuvi sahnalari turli variantlarda o`ynaladi.
2. “XUSHOMAD QILISH” o`yini. Guruh a`zolari bir-birlariga xushomad qila boshlaydilar. Maqsad guruhdagi shaxslararo tanglikni bartaraf etish.

***To`rtinchi savol:*** O`qituvchining pedagogik texnologiyani qo`llay olish imkoniyatlari, o`z malakasini oshirib borishning psixologik muammolari haqida ma`lumot beriladi.

Nazorat savollari:

1. O`qituvchi mehnatining asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Tarbiyachi sifatida o`qituvchi shaxsining ro`li haqida tushuncha bering?
3. O`qituvchi faoliyatining samaradorligi va uni baholash mezonlari haqida ma`lumot bering?
4. O`qituvchi pedagogik mahoratini rivojlantirishning psixologik muammolari.

Qo`shimcha topshiriqlar:

Quyidagi mavzular yuzasida referat va doklad yozishga harakat qiling.

1. Pedagogik faoliyat va o`qituvchi shaxsi.
2. Pedagogik muloqot va uning psixologik tavsifi.
3. O`qituvchi shaxsining kasbiy ahamiyatga molik fazilatlar.

4. Pedagogik faoliyatda ijodiy yo`nalish.

Adabiyotlar:

1. I.A.Karimov. O`zbekiston Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo`lida. T.: "O`zbekiston". 1995.
2. I.A.Karimov. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: "O`zbekiston". 1997.
3. A.Z.G`afarov., A.X.Yugay. Pedagogik amaliyot. Toshkent, 2002.
4. M.G.Davletshin., S.M.To`ychieya. Umumiy psixologiya. Toshkent, 2002.
5. M.G.Davletshin. Zamonaviy maktab o`qituvchisi psixologiyasi. – Toshkent, 1998.
6. A.I.Shcherbakov. Yosh psixologiyasi va pedagogic psixologiyadan praktikum. Toshkent, 1994.
7. Psixologiya. Qisqacha izohli lug`at. Toshkent, 1998.
8. E.G.G`oziyev. Psixologiya. Toshkent, 1994.
9. V.Karimova. Psixologiya. Toshkent, 2000.

MUNDARIJA

Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha uslubiy tavsiyalar.....	2
Umumiy seminar mavzulari	3
1 mashg'ulot. Hozirgi zamon psixologiyasi fanning predmeti, tuzilishi, holati, metod va prinsplari.....	4
2 mashg'ulot. Psixika va ongning taraqqiyoti.....	8
3- mashg'ulot. Shaxs faoliyatining psixologik xarakteristikasi.....	10
4-mashg'ulot. Psixologiyada shaxs tushunchasi.....	13
5-mashg'ulot. Diqqat va xotira.....	20
6-mashg'ulot. Tafakkur.....	24
7-mashg'ulot. Yosh davrlar psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanining predmeti va metodlari.....	26
8-mashg'ulot. O'smirlik davri shaxsning rivojlanishining psixologik xususiyatlari.....	29
9-mashg'ulot. O'qituvchi psixologiyasi.....	31

